



CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED SCIENCES

Volume: 03 Issue: 04 | Apr 2022 ISSN: 2660-5317

Prezident, Ijod Va Ixtisoslashgan Maktablar — Taraqqiyotning Yangi Bosqichi

Turaxodjayeva Zulxumor Yusufjanovna

Xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi Muhammad Sharif So'fizoda nomidagi viloyat bolalar
kutubxonasi direktori
Zulhumor.turaxodjayeva@gmail.com

Received 24th Feb 2022, Accepted 28th Mar 2022, Online 29th Apr 2022

Annotatsiya: Ushbu maqolada Prezidentimiz rahnamoligida tashkil etilgan Prezident va Ijod maktablari, Ixtisoslashtirilgan maktablar haqida hamda ularda olib borilayotgan zamonaviy ta'lim texnologiyalari, ta'lim tarbiya sifatini oshirishga qaratilayotgan chora-tadbirlar ko'rib chiqilgan va muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: ixtisoslashtirilgan maktab, ijod maktabi, maktab maslahatchisi, "STEAM – ta'lim" dasturi, "Cambridge o'quv dasturi".

Hamamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq. Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Mamlakat taraqqiyoti ko'p jihatdan iste'dodli bolalarni tanlash, ularga to'g'ri yo'nalish berish, qobiliyatini o'stirish, intellektual salohiyatini namoyon etishga ko'mak bera oladigan ta'lim tizimini yaratishga bog'liq.

Prezidentimiz raisligida joriy yilning 10-sentyabr kuni axborot texnologiyalari sohasida salohiyatli kadrlar tayyorlash va iqtidorli yoshlar bilan tizimli ishlash masalalari muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videosektor yig'ilishida Prezident va ijod maktablari hamda ixtisoslashgan maktablarda ta'lim-tarbiya sifatini oshirish masalalari ham muhokama qilingandi. Jumladan, kelajakda Prezident maktablarini respublikamizdagi barcha umumta'lim maktablari uchun lokomotivga aylantirish hamda Agentlik pedagog-kadrlarining malakasini oshirib borish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar belgilangan. Shunga ko'ra, ayni paytda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan bir qancha loyihalar ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Prezident maktabi o'quvchilarida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish, o'z qiziqish va iqtidoriga mos kasbni tanlashda yo'nalish berish maqsadida bir qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Agentlik tomonidan "Maktab maslahatchisi" — "School Counselor" dasturi va uni amalga oshirish

mexanizmi ishlab chiqilib, 2021-2022-o'quv yilidan Prezident maktablarida joriy qilinmoqda. Mazkur dasturdan ko'zda tutilgan maqsad ta'lim yo'nalishlari bo'yicha individual maslahatlar berish, dunyoning eng rivojlangan mamlakatlaridagi nufuzli oliy o'quv yurtlari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish, oliy o'quv yurtlariga hujjat topshirish va ro'yxatdan o'tish bo'yicha kerakli tavsiyalarni berish, ehtiyoj yuqori bo'lgan kasblar bilan tanishtirish va ularga yo'naltirishdan iborat.

Shuningdek, dasturda maktab maslahatchilari ishini to'g'ri tashkil qilishlari uchun ularga bosqichma-bosqich yo'riqnoma ko'rsatilgan. Yo'riqnomada 14-18 yoshli o'quvchilarga o'qishga qabul qilinishida zaruriy hujjatlarini (reference letter, application, essay) tayyorlash, belgilangan muddatlar, shuningdek, Top — 300 talikka kiruvchi universitetlar to'g'risida ma'lumot berish, to'liq grantlarni qo'lga kiritish yuzasidan amaliy mashg'ulotlarni olib borish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

Sohada muvaffaqiyatga erishgan kasb egalari bilan mahorat darslari, uchrashuvlar tashkil etish, ta'lim iste'molchilari qiziqish bildirgan sohalari bo'yicha amaliy ekskursiya va tanishuvlar amalga oshirish, maktab psixologi bilan hamkorlikda o'quvchilar yoshi, psixofiziologik xususiyati, qobiliyati va iqtidoriga ko'ra hayotda o'z yo'nalishini to'g'ri tanlay olishiga ko'maklashish, Prezident maktabi o'quvchilarida milliy va an'anaviy qadriyatlarga bo'lgan hurmat, iftixorni rivojlantirish maqsadida maktabda IT, kichik tadqiqotchilik, milliy hunarmandchilik kabi yo'nalishlar bo'yicha to'garaklar tashkil qilish va ularni samarali amalga oshirishdan iborat. Mazkur dastur muvaffaqiyatli o'tgach, ijobiy tajriba xalq ta'limi tizimidagi maktablarga translyatsiya qilinishi ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2019-yilning 9-sentabr kuni imzolangan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligini tashkil etish to'g'risida"gi farmoniga ko'ra faoliyatini boshlagan.

Agentlikning asosiy vazifasi iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash hamda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda o'qitish, tarbiyalash sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirish hisoblanadi.

Hozirgi kunda Agentlik tizimida barcha sharoitlarga ega bo'lgan 16 ta maktab faoliyat yuritmoqda. Jumladan, 4 ta Prezident maktabi, 9 ta ijod maktabi va 3 ta ixtisoslashtirilgan maktabda 3095 nafar o'quvchi turli fan yo'nalishlari bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim olmoqda.

2019-yilda mamlakatimizda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan yangi maktablar tizimi yaratildi. Prezident maktablari mamlakatimizda uzluksiz ta'limni yangi bosqichga olib chiquvchi o'ziga xos lokomotivga aylanadi. Prezident maktabini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarni qo'llash orqali iqtidorli bolalarni aniqlash va o'qitish tizimini shakllantirish, shuningdek, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'naviy boy va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash kafolatlarini ta'minlashdan iboratdir.

Prezident maktabi faoliyatining asosiy vazifalari va ustuvor yo'nalishlari:

- iqtidorli bolalarni aniqlash, tanlash va o'qitish, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek o'quvchilarning intellektual, ilmiy va ijodiy salohiyatini ochib berish;
- tabiiy va aniq fanlarni chuqur o'rganish, xorijiy tillar, muhandislik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirishni tashkil qilish, o'quvchilarning innovatsion g'oyalari va ishlanmalarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

- o'quvchilarni o'qitish va ular bilimni baholashning zamonaviy uslublarini, shuningdek ta'lim dasturlarining integratsiyalashuviga asoslangan o'qitishning fanlararo yondashuvini joriy qilish va keyinchalik ijobiy tajribani respublika xalq ta'limi tizimiga tatbiq etish;
- o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularda yetakchilik ko'nikmalari va notiqlik san'atini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash, axborotni izlash, tahlil qilish va qayta ishlash, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash bo'yicha malakasini oshirish;
- o'quvchilarning umumta'lim fanlari bo'yicha xalqaro olimpiadalar, tanlovlar va musobaqalarda munosib ishtirokini ta'minlash;
- o'quvchilarda vatanparvarlik va Vatanga muhabbat tuyg'usini, bag'rikenglik, qonunlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatni, hayotga qat'iy ishonch va qarashlarni shakllantirish;
- o'quv dasturlarining uzluksizligini ta'minlash masalalarida xuddi shu yo'nalishdagi milliy va xorijiy umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, bitiruvchilarning ilg'or xorijiy oliy o'quv yurtlarida va ularning respublikamizdagi filiallarida o'qishini davom ettirish.

Prezident maktabida ta'lim jarayoni Vazirlik tomonidan tasdiqlangan amaldagi Davlat ta'lim standartlarini hisobga olgan holda umumiy o'rta ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlab chiqiladigan o'quv reja va dasturlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'quv jarayoni jadvali, o'quv mashg'ulotlarining turlari va davomiyligi, o'quvchilarning o'quv yuklamasi, tashkil etish shakllari va o'quv-tarbiya jarayonining boshqa masalalari vazirlik tomonidan tasdiqlangan ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan xorijiy tashkilotlar bilan birgalikda ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari va Vazirlikning boshqa normativ hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Ta'lim sifatini nazorat qilish xalqaro ta'lim standartlarini inobatga olgan holda davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Ta'lim sifatini nazorat qilishni ta'minlash uchun maxsus xorijiy tashkilotlar ham jalb qilinishi mumkin.

Prezident maktabi bitiruvchilariga davlat namunasidagi ta'lim to'g'risidagi hujjat (guvohnoma, shahodatnoma) beriladi. Prezident maktabiga respublika umumta'lim muassasalarining to'rtinchi sinf bitiruvchilari orasidan qobiliyatli va iqtidorli bolalar tanlov asosida qabul qilinadi. Prezident maktabi faoliyatining birinchi yilida shu jumladan, o'quvchilar 6-10-sinflarga qabul qilinadi.

O'quvchilarni qabul qilish Ishchi organ tomonidan ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan xorijiy tashkilot bilan birgalikda o'tkaziladigan kirish imtihonlari natijalari asosida amalga oshiriladi. Prezident maktablariga qabulni to'g'ri tashkil etish mas'uliyati Ishchi organga yuklanadi. Prezident maktablariga qabul qilish teng huquqlik, adolat va shaffoflik prinsiplari asosida amalga oshiriladi. Belgilangan kvotaga asosan kirish imtihonlari natijalari bo'yicha eng yuqori ball olgan o'quvchilar o'qishga qabul qilinadilar.

Prezident maktablariga o'quvchilarning hujjatlarini taqdim etish faqat ariza beruvchining hududiy mansubligi bo'yicha amalga oshiriladi. Nomzod maktabining hududiy mansubligi Prezident maktabining hududiy mansubligiga mos kelishi kerak. Hujjatlarni qabul qilish boshlanishidan kamida 10 kalendar kun oldin Ishchi organ O'zbekiston Respublikasi hududida tarqatiladigan ommaviy axborot vositalarida Prezident maktablariga qabul qilish tartibi, hujjatlarni topshirish muddatlari va kvotalari to'g'risida jamoatchilikka ma'lumot beradi.

Prezident maktablariga hujjatlarni qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi, Xalq ta'limi vazirligi, O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi, Xalq ta'limi sohasida axborot-

kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi, Respublika ta'lim markazi, shuningdek, Ishchi organ vakillaridan iborat Qabul komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Ana shunday yuksak ishonch va ezgu tilak bilan o'z faoliyatini boshlagan mazkur ta'lim muassasida bugun ta'lim o'ziga xos uslub va keng ko'lamda olib borilayotir. Xususan, maktabda o'qitish science — tabiiy fanlar, technology — texnologiyalar, engineering — texnik ijodkorlik, art — san'at va mathematics — matematika yo'nalishiga chuqur ixtisoslashgan. Unda ta'lim xalqaro "STEAM — ta'lim" dasturi asosida olib borilmoqda. "STEAM—ta'lim" dasturi "Cambridge o'quv dasturi" (informatika, matematika, fizika, kimyo, biologiya, science, ingliz tili) va "Mahalliy o'quv dasturi" (ona tili va adabiyot, rus tili, tarix, tasviriy san'at, chizmachilik, jismoniy tarbiya va texnologiya)dan iborat.

Bitta sinfda 12 nafar o'quvchi o'qiydi. O'quvchilar sonining kamligi ularning barcha fanlarni chuqur o'zlashtirishiga imkon yaratadi. Xalqaro ta'lim dasturlari asosida o'qitish, o'z navbatida, innovatsion yangiliklar yaratishga yo'l ochadi. Maktabda o'quvchilarning ham akademik salohiyatini o'stirish, ham ularning ijtimoiy faolligini oshirish, yetakchilik ko'nikmasi, notiqlik san'atini rivojlantirish, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash malakasini oshirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, hayotga qat'iy ishonch va qarashlarini shakllantirishga e'tibor qaratiladi. Xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlikda Cambridge universiteti tajribasi asosida "Computer Science", "Coding Club", "Environmental Club", "Theatre Arts", "Visual & Performing Arts", "Science Olympiads Club" hamda "Robotics" nomli qo'shimcha mashg'ulotlar olib boriladi. "Raqs", "Drama", "Musiqqa" kabi ijodiy, "Shaxmat", "Suzish", "Stol tennisi" va "Futbol" sport to'garaklari tashkil etilgan.

Ayniqsa "Intel League" intellektual klubi, "Jurnalistika", "Radio", "School counselor", "Book drive" loyihalari o'z ichiga maktabning qariyb barcha o'quvchilarini qamrab olgan. "Intel League" intellektual klubi o'yinlarida nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar jamoasi ham ishtirok etadi.

"Jurnalistika" loyihasi doirasida maktabda o'quvchilar "Projektor" jurnalini tayyorlaydi va nashr etadi. "Radio" loyihasi vositasida o'quvchilarga kundalik yangiliklar, foydali maslahatlar, umumiy fanlarga oid qiziqarli ma'lumot va savollar o'qib eshittiriladi.

"School counselor" loyihasi bitiruvchi o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy qilingan. Unda o'quvchilarning qiziqishlariga qarab yuqori reytingga ega xorijiy universitet hamda grantlar haqida ma'lumotlar to'planib, bitiruvchilarga yetkaziladi. Xorijiy universitetlar talab etadigan hujjatlar, qabul jarayoni va ularga kirishda yaqindan yordam beradi.

Bir-biriga yaqin va o'zaro uzviy bog'liq fanlar integratsiyalashuvi natijasida ular soni optimallashtirildi, — dedi Toshkent shahridagi Prezident maktabi ijrochi direktori To'raboy Shermatov. — "Huquq va davlat asoslari", "Dunyo dinlari tarixi" fanlari "O'zbekiston tarixi" va "Jahon tarixi" bilan, "Iqtisodiy bilim asoslari" fani "Geografiya" bilan, Cambridge o'quv dasturidagi "Character Education" fani o'zimizning "Tarbiya" fani bilan integratsiyalashdi. Sinflar kesimida o'qitiladigan fanlarning 15 tadan 11taga kamayishi o'quvchilarni ortiqcha yuklamadan xalos qildi, pirovardida, ta'lim sifati va samaradorligi o'sdi.

Angliyaning Kembridj universitetidan 4 ming 245 dona o'quv-uslubiy qo'llanmalar olib kelindi va ular maktab kutubxonasini boyitdi. O'quvchilar kutubxonada infografika, chizma va vizual rasmlarga boy nufuzli Cambridge University Press, Oxford University Press Collins, Hodder kabi nashriyot kompaniyalari chop etgan yuqori sifatli kitob va qo'llanmalardan foydalanishlari mumkin. Bu metodik qo'llanmalar darsni chuqur va sifatli o'tishiga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda respublikamiz hududlarida tashkil etilishi rejalashtirilgan jami 14 ta Prezident maktablarining 4 tasi Toshkent, Nukus, Xiva va Namangan shaharlarida faoliyat yuritmoqda. Prezident maktablarida 576 nafar iqtidorli o'quvchilarga "STEAM" fanlari bo'yicha Kembrij xalqaro ta'lim

dasturlari asosida ta'lim saboq berilmoqda. Keyinchalik mazkur amaliyotni barcha o'rta ta'lim maktablariga bosqichma-bosqich joriy qilish ko'zda tutilgan. Ta'lim jarayoniga 40 nafar xorijlik malakali o'qituvchi jalb qilingan.

Prezident maktablarida ta'lim oluvchilarga o'quv fanlari mazmunini chuqur o'rgatish bilan birgalikda, ularda mantiqiy va tanqidiy fikrlash, bilimlarni amaliyotda mustaqil qo'llash, ma'lumotni tahlil qilish va natijani barchaga tushunarli tilda yetkazish kabi malaka va ko'nikmalarni shakllantirish ko'zda tutilgan.

Prezident maktablari bitiruvchilari belgilangan tartibda davlat tomonidan tasdiqlangan o'rta ma'lumot to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma, attestat) bilan bir qatorda, xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalariga kirish imkonini beruvchi Kembrij Xalqaro sertifikatini (Cambridge International AS & A level) ga ham ega bo'ladilar.

2020-yilda yana 5 ta Prezident maktabi Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlari markazlarida qurilmoqda. 2021-yilda esa respublikaning qolgan hududlarida ham Prezident maktablari tashkil etildi.

Agentlik tizimidagi ijod maktablari mamlakatimizdagi ijodkor yoshlarning ta'lim olishi va iqtidorini rivojlantirish maqsadida tashkil qilindi. Ayni paytda yurtimizning turli hududlarida 9 ta ana shunday ijod maktablarida 1464 nafar o'quvchilarga yuqori malakali o'qituvchilar tomonidan ona tili, adabiyot va xorijiy tillar yo'nalishlarda chuqurlashtirilgan bilim berilmoqda.

2019-yilda 3 ta ijod maktabi faoliyati yangidan yo'lga qo'yildi. Xiva shahridagi Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi, Guliston shahrida Halima Xudoyberdiyeva nomidagi, Toshkent shahrida Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktablari zamonaviy bino bilan ta'minlandi. Ayni vaqtda ijod maktablari o'quvchilari uchun respublikaning yetakchi adabiyotshunos olimlari tomonidan ixtisoslik fanlari bo'yicha yangi avlod darsliklari tayyorlanmoqda. Ijod maktablari uchun chet tili (ingliz, fransuz, nemis tillari) darsliklari ilg'or xorijiy davlatlarning nufuzli nashriyotlaridan xarid qilinmoqda.

Barcha ijod maktablari optik tolali yuqori tezlikdagi internet orqali Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasining axborot-resurs bazasidan foydalanishiga sharoit yaratilgan. Ijod maktablari o'quvchilari har yili o'zbek va dunyo adabiyotining eng sara 50 ta asarlaridan o'qishi, 50 ta she'rni yod olishi, o'zbek va dunyo kinematografiyasining 100 ta eng yaxshi namunasini tomosha qilishi, o'zbek va dunyo tasviriy san'atining 100 ta eng yetuk asari bilan tanishishi, o'zbek va dunyo mumtoz musiqasining 100 ta eng mukammal asarini tinglashi yo'lga qo'yilgan.

Ijod maktablarida nafaqat ixtisoslik fanlari, balki aniq va tabiiy fanlar ham malakali o'qituvchilar tomonidan olib boriladi. Bu, o'z navbatida, ijodkor o'quvchilarimizning kelgusida jamiyatda o'z o'rnini topishiga, har xil sohalarda faoliyat olib borishiga zamin yaratadi. Ijod maktablarida eng qulay virtual laboratoriyalardan Crocodile Physics, Technology, Crocodile Chemistry, Interactive Physics, Crocodile ICT, Stratch dasturlari orqali foydalanish imkoniyat yaratilgan.

Ijod maktablarida yuksak estetik didga va chuqur bilimga ega bo'lgan, xorijiy tillarni mukammal biladigan, ijodkor va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash uchun tamal toshi qo'yilgan. Agentlik tasarrufidagi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi, Mirzo Ulug'bek nomidagi va Abu Ali Ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablarda 1055 nafar iqtidorli o'quvchilarga matematika, axborot texnologiyalari, fizika, astronomiya, kimyo va biologiya fanlaridan interaktiv tarzda chuqurlashtirilgan bilim berilmoqda.

Ixtisoslashtirilgan maktablarda ham ixtisoslik fanlar chuqur o'qitilishi bilan birgalikda, o'quvchilarda mantiqiy va tanqidiy fikrlash, bilimlarni amaliyotda mustaqil qo'llash, ma'lumotni tahlil qilish va natijani barchaga tushunarli tilda yetkazish kabi malaka va ko'nikmalar shakllantirishga yo'naltirilgan.

Ixtisoslashtirilgan maktablarda 2020/2021 o'quv yilidan boshlab Ilm-fan (Science), Shaxsiy saviya (Personal development), Zamonaviy yondashuv (Global Perspectives) kabi fanlarini ixtisoslik fan sifatida o'qitish yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, 2019-yilda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi AKTga ixtisoslashtirilgan maktab uchun 1200 o'quvchi o'rniga ega zamonaviy bino qurildi. Bundan tashqari, Prezidentimizning "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab kimyo va biologiya fanlari bo'yicha tayanch ixtisoslashtirilgan maktabga aylantirildi. Mazkur maktab Prezident maktablari, xorijlik hamkorlarning tajribasidan keng foydalangan holda tayanch maktablarida biologiya hamda kimyo fanlarini o'qitish jarayonini takomillashtirish bo'yicha ishlarni olib boradi.

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar mamlakatimizda iqtidorli bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularni rivojlanishi hamda bilim olishi uchun kerakli shart-sharoitlar yaratish tizimini yaratishdagi qadamlardan biridir.

Agentlik tizimidagi ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalarni, eng yaxshi ta'lim dasturlarini, yaratilgan darsliklarni bosqichma-bosqich ta'lim tizimidagi barcha umumta'lim maktablariga ham joriy etish ko'zda tutilgan. Agentlik bizning kelajagimiz bo'lgan yoshlarning chuqur bilim egasi va komil shaxs bo'lib tarbiyalanishi barcha shart-sharoitlarni yaratishda ta'lim tizimidagi muhim ahamiyatga ega bo'g'in vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgachaTa'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 2019., 13 may, PQ 4312 son.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.-488 bet.
3. С.А. Хайдаров. (2020). Педагог-ўқитувчиларда ахборот-коммуникация Кўникмасини шакллантириш асослари. "Science and Education." Scientific journal. 1(7). 610-617 б.
4. <https://lex.uz/docs/-4387224>
5. Azizxo'jaeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga Tayyorlash texnologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2000. – 52 b.
6. <https://www.uzedu.uz/oz/yangiliklar35-2>